

SOBIR O'NAR HAYOTI VA UNING "BEGONA MEHMON" HIKOYASIDA INSON RUHIYATI

*Jumaboyeva Hilola Akmal qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asr o'zbek ziyolilarining eng yirik vakillaridan biri Sobir O'nar hayoti va uning ijodidan namuna sifatida "Begona mehmon" hikoyasi taqdim etiladi. Bundan tashqari, asardagi voqealar va qahramonlar tahlil qilinib, ularning jamiyat hayoti va inson ruhiyatiga ta'siri o'r ganiladi.

Kalit so'zlar: Sobir O'nar, oila va jamiyat, Matlab bobo, sevgi, Chingiz Aytmatov, Oqmoral, vaqt.

Abstract: This article presents the story "Stranger Guest" as an example of the life and work of one of the largest representatives of the Uzbek intellectuals of the 21st century, Sobir Onar. In addition, the events and characters in the work are analyzed, and their impact on the life of society and the human psyche is studied. **Keywords:** Sobir Onar, family and society, Matlab bobo, love, Chingiz Aitmatov, Okmoral, time.

Аннотация: В данной статье представлен рассказ «Незнакомый гость» как пример жизни и творчества одного из крупнейших представителей узбекской интеллигенции XXI века Собира Онара. Кроме того, анализируются события и персонажи произведения, изучается их влияние на жизнь общества и психику человека.

Ключевые слова: Собир Унар, семья и общество, Матлаб бобо, любовь, Чингиз Айтматов, Окморал, время.

XXI asr ziyolilarining iste'todli vakillaridan biri Sobir Hamzayevich O'narov Samarqand viloyatining Quvkalla qishlog'ida tug'ilgan, 1986-yilda Toshkent Davlat Universitetining journalistika fakultetini tugatgan. 1989-yil "Yoshlik" jurnalida muharrir, bo'lim muharriri, bosh muharrir vazifasida, so'ngra "Kuch adolatda" gazetasi va "G'afur G'ulom", "Yoshlar" nashriyotida, umrining oxiriga qadar esa O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Nasr" bo'limida faoliyat olib borgan. Uning 1989-yilda "Orzuga to'la qishloq" nomi ostida ilk hikoyalar to'plami "Cho'lpon" nashriyotida chop etilgan. Shu yili u Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilingan. Keyingi yillarda esa u "Inqilob kechasi", "Dunyo shundoq tururmi?", "Bibisora" kabi qissalar e'lon qildi. 1990-yilda "Ovloq adirlar bag'rida", 1991-yilda esa "Chashma" kitoblari dunyo yuzini ko'rdi. Sobir O'nar Yozuvchilar uyushmasida ham o'z qobilyatini ko'rsatmay qolmadidi. "Tanishganimizdayoq uning tashqi ko'rinishi meni hayratda qoldirgandi. U aksariyat paytlarda galstuksiz, qandaydir sviter yoki oddiygina ko'yakda yurgani uchun nozik didli,

ruhiyatni chuqur anglaydigan yetuk yozuvchidan ko‘ra ko‘proq qandaydir jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchi bog‘bon yoki qorovulga o‘xshardi. Lekin men uning rus tiliga tarjima qilinib, “Zvezda Vostoka” jurnalida chop etilgan “Begona mehmon” hikoyasini o‘qib, uni katta yozuvchi sifatida allaqachon kashf etgandim. U mazkur hikoyada odad tusiga aylanib qolgan zerikarli qoliplardan qochib, hayotning azobli sinovlarini boshidan kechirayotgan, baxtiga ishongan qahramonlarning hayotini o‘ziga xos usulda, samimiyligi bilan e’tiborimni tortgandi. Kamtarlik yozuvchining nafaqat tashqi ko‘rinishida, balki uning ijodiy usulida ham aniq sezilib turardi: ta’sirchan, lekin oddiy, hech narsani ataylab o‘ylab topmasdan, keskin burilishlar va kuchli ruhiy zo‘riqishlardan qochgan holda, ortiqcha nasihatga berilmasdan hayot haqiqatini tiniq namoyon etardi. Eng asosiysi – bu voqealarni o‘qish juda maroqli edi,”-deydi Sobir O‘narning hamkasbi va qadrdon do‘sti Nikolay Ilin.¹ Ushbu jumlalar shoirning naqadar kamtarligi, rostgo‘yligi, o‘z kasbiga nisbatan qanchalar ko‘ngil qo‘yganini isbotlaydi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, uning asarlari boshqa asarlardan ancha farq qilib, shoir bir xillikdan qochadi. Uning asarlarining mavzusi yengillik tarzida emas, balki hayotning chinakam qiyinchiliklari aks etgan oila va jamiyat muommolari, vaqtning o‘tinchiligi, inson ruhiyati kabi mavzularni qamrab oladi.

Shuningdek, adib ijodida tabiat, go‘zallik, qishloq manzaralari tasviri ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu xususida Abdulla Oripov ham bekorga uning ta’rifini qiyomiga yetkazmagan: “Minglab o‘quvchilarning sevimli adibi Sobir O‘narning kitoblarini ancha vaqtdan buyon o‘qib kelyapman. Uning Vasiliy Shukshin, Vasiliy Belov singari adiblarga o‘xshab qishloq hayotini badiiy tasvirlashi lol qoldiradi. Odamlarning sodda, to‘poriligi, samimiyligi ko‘pchilik hikoyalarida shundoqqina muhrlanib qolgandek. Sobir O‘narning biror o‘n besh yildan buyon taniganim, kitoblari, matbuotidagi qissa, hikoya va qator maqolalarini o‘qiganim holda ayta olamanki, u sof o‘zbekcha yoza oladi. Fikrashi ham xalqona. O‘yaymanki buyam bir baho.”- deydi O‘zbekiston qahramoni Abdulla Oripov². Darhaqiqat, yozuvchining asarlarini boshqalardan ajratib turadigan jihatlari ham shunda.

Endi yozuvchining “Begona mehmon” hikoyasiga yuzlansak. Asar “Bu bir rivoyat. Lekin o‘zim unga ishondim. To‘qigan joylarim ham bor, to‘qimaganlarim ham. Lekin g‘alati. Sababi...” shaklida boshlanib, o‘quvchini o‘ziga jaib qiladi. Chunki yozuvchi fikri g‘alatiligi aytilgan-u, lekin uning sababi oshkor qilinmagan. Yozuvchining asarni dastlab mana shu tarzda bayon qilgani ham o‘quvchini uni o‘qishga majbur qiladi. Shunindek, hikoyada “Matlab aslida shu Oqmoralni deb dunyoga kelgan ekan. Saksonga kirib umrining boschi-ketini o‘ylasa shunday bo‘lib chiqdi”- deyiladi. Bundan kelib chiqadiki, asarning bosh qahramoni Matlab bobo asli Oqmoral uchun dunyoga kelgan. U yorini shunchalik sevadi-ki, sakson yoshga kirib, undan uzoqda bo‘lgandan keyin ham shunday

¹Ilin Nikolay “Tugallanmagan sahifa” “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 2023-yil 26-soni.

²Abdulla Oripov “Asarlari ham ko‘ngiday beg‘ubor” 2025 –yil 25-fevral.

hisoblaydi. Badiiy adabiyotda har bitta shoir va yozuvchi ishq tushunchasi va uni ifodalovchi, tashuvchi oshiq obrazini turlicha talqin qiladi va turlicha yondashadi. Shu o'rinda Sobir O'nar ham o'z qahramonini mana shunday talqin qiladi: *Oqmoralning yozishicha ularda udumni qattiq ushlar emishlar. Udum shariatdan ham ustun emish.*

Matlab bu so'zlarni o'qib naqd olov kabi yonib ketardi. Oq yuzli suluv-oq ohuni jizg'anak bo'lib birovlardan, noma'lum yigitlardan rashk qilardi. Bu dard shu qadar kuchli ediki, oxir oqibat kasalmand ahvolga keldi. Tunlari deyarli bo'zlab chiqadigan bo'ldi.

Parchadan kelib chiqadiki, oshiqning bunchalik yonib-kuyishiga sabab asarda yashirilmagan. Ya'ni "Suluv – oq ohu" bu Oqmoraldir. Qozoqchadan o'zbekchaga o'girilsa "oq ohu" degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari Oqmoral shunchalik chiroyligi, hatto qarigandan keyin ham qishloqda eng chiroyl "Suluv kampir" bo'lgan. Uning nafaqat go'zalligi, balki o'zbek ayollariga xos soddaligi, vazminligi ham o'rnak bo'ladigan darajadadir.

Sobir O'nar bo'yicha tatqiqot olib brogan olimlar va tanqidchilar ishlari, adabiy-tanqidiy maqolalarga ko'ra Sobir O'narning qissa va hikoyalari ayrim lirik va dramatik asarlarga murojaat qilgan. Masalan, uning "Begona mehmon" asarida ham Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" va uning umrining oxirida yozgan "Qulayotgan tog" asari" keltirilgan:

O'shanda Matlab bobo "Nima uchun bir og'iz aytmadinglar, men uning qissalarini, "Qiyomat" romanini yoddan bilaman-ku, ikki og'iz tuzuk-quruq gaplashtirmsizlar ham, bir katta boy deb o'ylabman, attang-a!" deb o'rtanib ohu zor qilgandi. Aytmatov qarigan chog'ida so'nggi romani – "Qulayotgan tog" ni yozdi. O'shanda u mana shu tog', mana shu tog' bag'ridagi oq barslar, mana shu qotil to'dalarning razilliklarini, oxir oqibat o'z qavmining ne ahvolga kelib qilayotgan qilmishlarini qalamga olgan ekan-da...

Hay, go'ring nurga to'lgur, Chingiz do'stim-a!

Bundan kelib chiqadiki, uning bu usuli o'z asarlarida ham adabiyot va adabiyotshunoslikka tegishli barcha qimmatbaho asarlarni jipslashtirish va ularni tarixga muhrlashdan iborat.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, Sobir O'nar ijodining o'ziga xosligi, avvalo, uning obrazlar dunyosida, til va uslubida, shuningdek, hayotiy hodisalarga noan'anaviy, o'ziga xos falsafiy nigohida namoyon bo'ladi. Sobir O'nar asarlarida milliy ruh zamonaviy hayot hodisalari bilan uzviy bog'langan. U o'zbek xalqining urf-odatlari, ruhiyati, qadriyatlarini tahliliy va ko'p qatlamlı ifoda etishga intiladi. Shu bilan birga badiiy tafakkurida Sharq falsafasi bilan G'arbiy psixologik yondashuvlar ustalik bilan qo'shiladi. Adib asarlarida inson ichki olamining murakkabligi, ruhiy azoblari, tanlov qarama-

qarshiliklari asosiy masala sifatida ko‘tariladi. U ko‘pincha hayotdagi oddiy voqealar ortida turgan falsafiy muammolarni ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nikolay Ilin “Tugallanmagan sahifa” “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 2023-yil 26-son.
2. <https://uza.uz/oz/posts/asarlari-ham-kongliday-begubor571333> Abdulla Oripov “Asarlari ham ko‘ngliday beg‘ubor” 2025 –yil 25-fevral.
3. Axmadjonova Jasmina “Navoiy asarlarida oshiq obrazi”.
4. <https://oefen.uz/uz/documents/diplom-ishlar/umumiy/sobir-o-nar-asarlarida-zamon-va-shaxs> “Sobir O‘nar asarlarida zamon va shaxs” 08.2023